

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z-o'zini baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish modeli

Nodira Alisherovna Maxmudova
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda o'z-o'zini baholash jarayonini takomillashtirish maqsadida mualliflik variativ usullarni taqdim etish, shuningdek o'z-o'zini baholash usullarida o'quv mashg'ulotlarida mustaqil ish yoki ijodiy topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etishi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'z-o'zini baholash, model, modellashtirish, mustaqil ish, ijodiy topshiriq, dars, ongli kognitiv faoliyat, komponent

Model of development of independent cognitive activity through self-assessment in primary class students

Nodira Alisherovna Makhmudova
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: In this article, in order to improve the process of self-assessment of students, it is considered that independent work or creative assignments are important in self-assessment methods.

Keywords: self-assessment, model, modeling, independent work, creative task, lesson, conscious cognitive activity, component

O'z-o'zini baholash o'quvchining o'qitishda faol subyekt bo'lishida katta ahamiyatga ega. O'qitishda o'qituvchining asosiy pedagogik faoliyat turlaridan biri - o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bu faoliyatning samarali tashkil etilishi o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatini rejalashtirish, ularning motivatsiyasini oshirish, o'quv maqsadlarini aniqlashtirish, nazorat va baholashni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Izlanishlar doirasida ishlab chiqilgan model va uning tarkibiy qismlarini batafsil yoritishdan avval model hamda modellashtirish tushunchasini yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot ishida o'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarning tahlili zamonaviy ilm-fan sohasida model tushunchasi juda keng qo'llanilganligini ko'rsatadi.

I.M.Gorbachenkoning fikricha, model birinchi navbatda, ma'lum bir muammoni, vaziyatni, uni tahlil qilish jarayonida matematikaning formal-mantiqiy

apparatini qo'llash imkonini beruvchi maxsus tavsif hisoblanadi. O'z navbatida, modellashtirish tushunchasi ostida tadqiqotchi boshqa yordamchi obyektlarni tahlil qilish orqali bilish obyektlarini biror narsa vositasida maxsus o'rganishni nazarda tutadi.

I.B.Novik, N.M.Mamedovlar fikriga ko'ra, model predmetli, belgili yoki farazli tizim bo'lib, tadqiqot obyektining (aslining) ichki tuzilish yoki faoliyat yuritish tamoyillarini, o'ziga xos xususiyatlarini, belgi va tavsiflarini aks ettiradi yoki imitatsiya qiladi.

M.L.Fedyuninning ta'kidlashicha, model - bu o'ziga xos obyekt bo'lib, belgili vositalar asosida bayon etilgan obrazning mantiqiy shaklda ma'lumotni olish va saqlash maqsadida yaratiladi. Bundan tashqari, muallifning fikriga ko'ra, model asl obyektning asosiy, belgilangan xususiyatlari, tavsifi va aloqalarini aks ettiruvchi moddiy predmet ham bo'lishi mumkin.

M.L.Borgoyakova ta'kidlashicha, modellashtirish usuli obyekt modellarini, ya'ni tizimlar, konstruksiyalar, jarayonlarni yaratish, tahlil qilish va o'rganishning murakkab jarayonidir. Shu bilan birga modellashtirish o'z strukturasi ega bo'lib, ularni muallif quyidagi to'rt bosqichga bo'ladi:

- vazifani belgilash;
- aslini o'rganish maqsadida modellarni tanlash va yaratish;
- modelni o'rganish;
- modelni o'rganish natijasida olingan ma'lumotni asliga ko'chirish.

V.B.Kudryavsev, P.A.Aliseychik, K.Vashik, D.Knap, A.S.Strogalov, S.G.Chexovtsovlar modellarni ularning qayta tiklanish uslubi ya'ni, modelni qurish vositalari va modellashtirilgan ob'ektning tavsifi, muhitdagi ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflab, ularni ikkita katta guruhga birlashtirishadi:

- moddiy (fizik);
- ideal (belgili).

Belgili modellashtirishda matematik modellashtirish alohida ajralib turadi. Fizik modellashtirish ostida model va original bir xil jismoniy xususiyatga ega bo'lib, ular faqatgina o'zining parametrlaridagi miqdoriy ko'rsatkichlarda farqlanishi tushuniladi.

Tayyorlangan model (qarang 1-rasm) asosan ilgari tanlangan metodologik yondashuvlarga asoslanib, asosiy maqsad, tegishli vazifalar, mazmun va kutilgan natijalarni o'z ichiga olgan bir-biriga bog'liq bo'lgan tarkibiy qismlar, komponentlar tizimidir. Modelni tayyorlashda boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlarining xususiyatlari ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limning innovatsion texnologiyalarini qo'llash sharoitida ham o'z-o'zini baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish uchun modelning tarkibiy jihatlarini batafsilroq ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, modelning maqsadi ijtimoiy buyurtma asosan shakllantirildi.

Ijtimoiy buyurtma mazmunini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori [1] bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'limning davlat standartlari" 4-bob, 13§ga muvofiq "Umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standartida keltirilgan umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablar"i belgilab berdi. Shundan kelib chiqqan holda modelning maqsadi "O'z-o'zini baholash orqali boshlang'ich sinf o'quvchisida mustaqil bilish faolligini rivojlantirish, ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga erishishni ta'minlash" deb belgilab olindi.

Modelning mazmuniy tarkibi maxsus tayyorlangan "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zini o'zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish texnologiyasi" uslubiy qo'llanma bilan ham belgilanadi. Uning mazmuniy tarkibini amalga oshirishning muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zini o'zi baholash faoliyati.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil bilish faolligini oshirishning pedagogik-psixologik zaruriyati.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zini o'zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirishning tarkibiy tuzilishi.
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zini o'zi baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirishda interfaol o'qitish metodlaridan foydalanish.
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil bilish faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsiyalar.

Modelning "Mazmun" blogi "O'z-o'zini baholash" va "Mustaqil bilish faolligi" komponentlaridan iborat. "O'z-o'zini baholash" komponenti baholash funksiyalari, o'z-o'zini baholash usullari va uning samarali omillarini o'z ichiga oladi. "Mustaqil bilish faolligi" komponenti esa o'z navbatida 4 ta subkomponentlardan tashkil topgan. Bu subkomponentlar quyidagilardan iborat:

- dars jarayonida har bir o'quvchining ongli kognitiv faoliyatiga va mustaqilligiga erishish;
- o'quvchilarning o'z faoliyatiga hissiy aloqadorlikni ta'minlash;
- o'quvchi mustaqil bilish faolligini motivlashtirish;
- darsda mustaqil ish yoki ijodiy topshiriqlarning bo'lishi.

"Baholash funksiyalari" subkomponentida kvalifikatsiyalash, saralash, legitimlik, ma'lumotlar berish va ijtimoiylashuv kabi funksiyalarni bajarishi keltirib o'tilgan. Modelda baholash funksiyalari dars jarayonida har bir o'quvchining ongli kognitiv faoliyatiga va mustaqilligiga erishish bilan o'zaro aloqadorlikka egaligi o'z ifodasini topgan.

“O‘z-o‘zini baholash komponenti” o‘z-o‘zini baholash usullari subkomponentini o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zini baholash usullari sifatida quyidagi variativ mualliflik usullari keltirib o‘tilgan: o‘z-o‘zini baholash varaqasi, o‘rganish xaritasi, “Blits chiroq” usuli, o‘z-o‘zini baholash, baholash muloqoti, o‘zari baholash, o‘quv kundaligi, o‘z-o‘zini baholashning standart usuli.

O‘z-o‘zini baholash jarayonini takomillashtirish maqsadida mualliflik variativ usullarni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar taklif etiladi.

O‘z-o‘zini baholash usullari o‘quvchining o‘z faoliyatiga va o‘zgalar faoliyatiga hissiy aloqadorlikni ta‘minlashga yo‘naltirishni maqsad qiladi. Shuning uchun modelda bu ikki komponent o‘zaro aloqadorlikka ega ekanligi tasvirlangan.

O‘z-o‘zini baholash usullari shuningdek o‘quvchi mustaqil bilish faolligini motivlashtiradi. O‘z-o‘zini baholash usullari orqali o‘quvchida ehtiyojlar shakllanadi, o‘z faoliyatini tizimli tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi. Ehtiyojlar o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va mustaqil bilish faolligini motivlashtiradi.

O‘z-o‘zini baholash usullari o‘quv mashg‘ulotlarida mustaqil ish yoki ijodiy topshiriqlarni bo‘lishini taqozo etadi. Mustaqil ish yoki ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarni faollashtirish, yangi bilimlarni egallash uchun yo‘naltirish mumkin. O‘quvchilarning mustaqil bilish faolligining turli jihatlarini baholash uchun mustaqil ish yoki ijodiy topshiriqlar mavjudligini taqozo etadi.

O‘z-o‘zini baholash va mustaqil bilish faolliqi komponentlarining umumiy subkomponenti sifatida samarali omillar keltirib o‘tilgan. Samarali omillar sifatida o‘uvchining o‘zini tushunishi, o‘zi to‘g‘risida ijobiy ma‘lumotlarni to‘plash, o‘zi to‘g‘risida shaxsiy fikrning o‘qituvchi fikri bilan qiyosiy tahlil qilishi keltirilgan. Muntazam ravishda o‘z-o‘zini baholash o‘quvchida o‘quv faoliyatining muvaffaqiyatga yo‘naltirilganligini ta‘minlaydi, o‘zining muvaffaqiyati haqidagi “ikkilanishlar”ni oldini oladi, o‘z imkoniyatlaridan maqsadli foydalana olishni tarbiyalaydi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchni orttiradi.

O‘z-o‘zini baholash va mustaqil bilish faolliqi komponentlarining yana bir subkomponenti sifatida “psixologik aspektlar” keltirib o‘tilgan. O‘quvchida o‘z-o‘zini baholash orqali mustaqil bilish faolliqi rivojlantirish bir vaqtning o‘zida ularda o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘ziga munosabat, o‘z-o‘zini his qilish hamda o‘z-o‘ziga ta‘sir kabi muhim ijobiy ta‘sir funksiyasini ham bajaradi. O‘z-o‘zini baholash orqali o‘quvchi bir vaqtning o‘zida “baholovchi” va “baholanuvchi”, “ob‘ekt” va “sub‘ekt” vazifasini o‘taydi. Baholashning psixologik aspektlar o‘z-o‘zini baholash va mustaqil bilish faolliqi komponentlari bilan uzviy aloqadorlikka ega ekanligi modelda o‘z ifodasini topgan.

Modelning “Tashxis” blogida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘zini baholash orqali mustaqil bilish faolligining 3 ta klassifikatsiyaga ajratilishi ko‘rsatilgan. O‘z-o‘zini baholash ba‘zi o‘quvchilarning mustaqil bilish faolligini real

holatini baholash imkonini bersa (perseptiv mustaqil bilish faolligi), ayrim o'quvchilar bu orqali o'z faoliyatini qayta faollashtirish, yangi o'rganish strategiyalarini belgilash (reproduktiv mustaqil bilish faolligi) imkonini beradi. O'quvchilarning yana bir guruhida esa o'z-o'zini baholash orqali nafaqat qayta faollashtirish, balki ijodiy faollikka, yangi fikr va g'oyalar bilan o'rganish motivatsiyasi (produktiv mustaqil bilish faolligi) rivojlanadi.

"Tashxis" blogi modelning "natija" blogini indikatori sifatida, uning mazmunini belgilab beradi. Modelning "natija" blogida kelgusidagi ta'lim faoliyati samaradorligini bashoratlay oladigan, mustaqil bilish faolligi rivojlangan, o'rganish "ichki ehtiyoj" sifatida shakllangan, o'rganish strategiyasini to'liq o'rgangan, shaxsiy fazilatlarini rivojlangan boshlang'ich sinf o'quvchisi ekanligi keltirib o'tilgan.

Umuman olganda, o'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilk maktab davridan boshlab o'z-o'zini baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish zaruratini tug'diradi. Baholashning eng muhim funksiyalaridan biri, o'quvchini muntazam ravishda faollikka undash, o'z ustida ishlash, mustaqil fikrlash, yuqori samaradorlikka erishishi uchun turtki berishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 14 (774)-son.

2. Боргоякова М.Л. Модель формирования ИКТ-компетентности у учителей общеобразовательной школы / М.Л.Боргоякова, В.В.Кравцов // Открытое и дистанционное образование. - 2015. - №2 (58). - С. 98-105.

3. Горбаченко И.М. Методы моделирования процесса обучения и разработки интерактивных обучающих курсов: дисс. ... канд. техн. наук: 05.13.01. - Красноярск, 2001. - 224 с.

4. Дьяконов В.П., Черничин А.Н. Новые информационные технологии: Учебное пособие. Часть 1. Основы и аппаратное обеспечение. - Смоленск: СГПУ, 2003. - 228 с.

5. Alisherovna, M. N. (2023). METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT COGNITIVE ACTIVITY THROUGH SELF-ASSESSMENT (on the example of Primary School students). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(2), 641-648.

6. Nodira, M. (2022). Pedagogical bases of assessment in primary education. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(5), 197-207.

7. Alisherovna, M. N. (2020). Family and school cooperation as a pedagogical condition for the formation of social experience in students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(11).

8. Makhmudova, N. A. (2019). THE ROLE OF INNOVATION IN PRIMARY EDUCATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(11), 298-301.

9. Alisherovna, M. N., & Tokhirjonkyzy, G. G. (2020). The professional development of teachers of primary education, improvement of the professional qualifications and skills. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 87-91.

10. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.

11. qizi Kamolova, A. O. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.

12. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.

13. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.

14. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. *Science and Education*, 5(2), 513-519.

15. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. *Экономика и социум*, (3-2), 12-14.

16. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.